

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

Nemis tili xorijiy til sifatida darsliklarining sifatini tekshirish haqida .....	247
<b>S.Z.Yoʻldoshev</b>	
Sport faoliyati yoʻnalishi talabalariga valeologiya fanini oʻqitishning didaktik imkoniyatlari .....	251
<b>I.O.Umarov</b>	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida oʻquv-jangovar sifatlarni rivojlantirishning taʼlim texnologiyasi .....	256
<b>Sh.M.Bazarbayeva</b>	
Yettisuv viloyatida oʻlat epidemiyasiga qarshi kurash siyosati (1900-1910-yillar).....	264
<b>O.X.Mahamadjonova</b>	
Bolalar folkloriga oid oʻn ikki choʻp va lapar oʻyinlari tavsifi va taʼrifiga doir .....	268
<b>G.A.Donisheva</b>	
Tarixiy jihatdan til leksikasining oʻrganilish darajasi (Oybekning Navoiy romani misolida) .....	273
<b>L.A.Xaitov</b>	
Hakim termiziy merosida inson vujudi (borligʻi) va ruhiy uzviyligi, inson oʻzligi (nafsi) muammosi. ....	276
<b>Sh.S.Kodirova</b>	
Teaching English language to geology students .....	280
<b>S.S.Xojiyeva</b>	
Maktab kimyo darslarida innovatsion metodlardan foydalanish .....	283
<b>F.I.Sharipova</b>	
Developing reading comprehension at future nurses .....	288
<b>U.B.Usmonova</b>	
Sarlavhalar publitsistik matnning muhim qismi .....	294
<b>K.X.Avazov</b>	
Региональное и международное сотрудничество в целях обеспечения безопасности, стабильности в Центрально-Азиатском регионе .....	297
<b>A.N.Qosimov</b>	
Sport vositasida oʻquvchilarda milliy oʻzlikni anglash va gʻurur-iftixot tuygʻusini shakllantirishning pedagogik zarurati .....	303
<b>A.T.Nishonov</b>	
OTM talabalarida axborot oqimini tahlil qilish koʻnikmalarini shakllantirishning pedagogik jihatlari .....	310
<b>M.X.Tillavoldiyeva</b>	
Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy taraqqiyot oʻrtasidagi aloqadorlik muammolari .....	314
<b>U.D.Xudoyorov</b>	
Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi miqdor va sifat koʻrsatkichlarining xususiyatlari.....	318
<b>S.U.Allayarova</b>	
Oʻquvchilar lugʻat boyligini oshirishning lingvo-pedagogik xususiyatlari.....	325
<b>Ch.T.Qurbonova</b>	
Tabiiy geografiya va geoekologiyada GAT texnologiyalaridan foydalanish.....	329
<b>Z.A.Kendjaeva</b>	
Ilk, jahon dinlari va falsafiy qarashlarda shukronalikka munosabat.....	333
<b>L.S.Sultonova</b>	
Milliy qadriyatlarining innovatsion taraqqiyot talablari asosida rivojlantirish .....	338
<b>Sh.T.Temirov</b>	
Mir Muhammad Siddiq Hashmat shaxsiy kutubxonasining Buxoro ilmiy-adabiy muhitidagi oʻrni.....	341
<b>S.X.Kaxxarov</b>	
Yoshlarda harbiy vatanparvarlik kompetensiyalarini shakllantirishda harbiy madaniyat omili .....	346
<b>A.R.Joʻrayev</b>	
Minnatdorchilik bildirish nutqiy janri verbal, noverbal va lingvistik atributlarining oʻziga xosligi .....	351
<b>M.C.Muxamedova</b>	
Роль Музеев Узбекистана в жизни общества (начало XX века).....	356
<b>G.J.Tulenova</b>	
On the issue of implementation of projects on the development and practical	



UO'K: 81'282.2 (075.8)

**MINNATDORCHILIK BILDIRISH NUTQIY JANRI VERBAL, NOVERBAL VA LINGVISTIK ATRIBUTLARINING O'ZIGA XOSLIGI****ХАРАКТЕРИСТИКА ВЕРБАЛЬНЫХ, НЕВЕРБАЛЬНЫХ И ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ПРИЗНАКОВ РЕЧЕВОГО ВЫРАЖЕНИЯ БЛАГОДАРНОСТИ****CHARACTERISTICS OF VERBAL, NONVERBAL AND LINGUISTIC ATTRIBUTES OF THE SPEECH GENRE OF GRATITUDE**

**Jo'rayev Arabboy Rahmiddin o'g'li**  
Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti tadqiqotchisi

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada minnatdorchilik bildirish nutqiy janrining verbal, noverbal va lingvistik atributlarining o'ziga xosligi haqida fikr yuritiladi. Bunda minnatdorchilik bildirishning matniy kompozitsion tuzilishidagi og'zaki va yozma nutqqa xoslik, dialogik va monologik, individual va jamoaviylik xususiyatlari kabilar yoritiladi. Ayniqsa minnatdorchilik bildirish nutqiy janrining verbal, noverbal va lingvistik atributlarining milliy-madaniy xususiyatlari diqqatga sazovordir.*

**Аннотация**

*В данной статье рассматривается специфика вербальной, невербальной и лингвистической атрибутики речевого жанра выражения благодарности. При этом выделяются такие особенности, как специфика устной и письменной речи в текстовой композиционной структуре выражения благодарности, диалогические и монологические, индивидуальные и коллективные особенности. Особо выделяются национально-культурные особенности вербальной, невербальной и языковой атрибутики речевого жанра благодарности.*

**Abstract**

*This article examines the specifics of the verbal, non-verbal and linguistic attributes of the speech genre of expressing gratitude. At the same time, such features as the specifics of oral and written speech in the textual compositional structure of expressing gratitude, dialogic and monological, individual and collective features are highlighted. The national and cultural features of the verbal, non-verbal and linguistic attributes of the gratitude speech genre are highlighted.*

**Kalit so'zlar:** minnatdorchilik bildirish, verbal vositalar, noverbal vositalar, lingvistik atributlar, matniy tuzilish.

**Ключевые слова:** благодарность, вербальные средства, невербальные средства, лингвистические атрибуты, текстовая структура.

**Key words:** gratitude, verbal means, non-verbal means, linguistic attributes, text structure.

**KIRISH**

Minnatdorchilik bildirish nutqiy janri til tizimida o'ziga xos nutqiy maqsad, kompozitsion tuzilish va uslubga egaligi bilan boshqa ta'limga oid nutqiy janrlardan farqlanib turadi. Minnatdorchilik bildirish nutqiy janri til tizimida turli uslublarda namoyon bo'ladi.

Tilshunoslikda minnatdorchilik bildirishning nutqiy janr sifatida tadqiq etish masalasi arab, urdu, ingliz tillari nuqtayi nazaridan tadqiq qilingan[1]. Ushbu tadqiqotlarda minnatdorchilik bildirish nutqiy janri lingvistik tadqiqotlar obyekt sifatida o'rganilgan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Minnatdorchilik bildirish nutqiy janri turli vaziyatlarda verbal/noverbal va lingvistik atributlarning mustaqil yoki ushbu vositalarning nutqiy vaziyatlarga xos tartiblashtirilgan ketma-ketlik asosida hosil bo'ladigan, shakliy va matniy jihatdan butun bo'lgan, barqaror belgilarga ega nutqiy janrdir.

Minnatdorchilik bildirishning verbal vositalarida quyidagi lingvistik xususiyatlarni kuzatish mumkin:

- 1) Matniy kompozitsion tuzilishga egaligi, ya'ni mikromatn, makromatn, gipermatn tuzilishli minnatdorchilik bildirish nutqiy janrlarining mavjudligi;
- 2) Minnatdorchilik bildirish nutqiy janrida modus va diktum qismlarning verbal, noverbal, lingvistik atributlar yordamida shakllanishi;
- 3) Uslubiy va sohaviy xususiyatlarga ega matniy shakllarning mavjudligi;
- 4) Dialogik va monologik nutqqa oidligi;
- 5) Og'zaki va yozma nutqqa xosligi. Minnatdorchilik bildirishning og'zaki shakli barcha uslublar uchun xarakterlidir, yozma shakli esa uslubiy xususiyatlarga ega bo'lib, siyosiy-rasmiy sohada tashakkurnomalar, minnatdorchilik xati, rasmiy nutqlar tarkibida, o'quv sohasida alohida nutqiy janr sifatida yoki so'z boshi, muqaddimaning yakuniy qismlarida kelishi bilan xarakterlanadi.

Masalan,

*Fursatdan foydalanib, bugungi tadbirimizda hozir bo'lib turgan "Masdar" kompaniyasi rahbari Muhammad al Ramahiy janoblariga, "China Energy" vitse-prezidenti Vu Yun janoblariga, "Gezhouba" kompaniyasi raisi Lin Syaodan janoblariga, bunyodkorlik ishlarida faol ishtirok etgan "Dong Fang", "Smek", "Sepko" va boshqa kompaniyalar rahbarlariga, nufuzli xalqaro bank-moliya institutlariga, mazkur loyihalarni amalga oshirishga munosib hissa qo'shgan barcha xorijiy va mahalliy mutaxassislariga, quruvchi-muhandislarga butun xalqimiz nomidan samimiy minnatdorchilik bildiraman .*

6) Dialogik va monologik nutqqa oidligi: Dialogik xarakterdagi minnatdorchilik bildirish so'zlashuv uslubida, monologik xarakterdagi minnatdorchilik bildirish rasmiy, publitsistik kabi uslublarda ifodalanishi bilan xarakterlanadi.

7) Rasmiy va norasmiylik xususiyatiga egaligi: Rasmiy xususiyatiga ko'ra rasmiy uslubda yozma shaklda rasmiy xat va rasmiy sahifa yohud rasmiy sahifaning bir qismi ko'rinishida, norasmiy xususiyatiga ko'ra so'zlashuv uslubida og'zaki shaklda ifodalanadi.

8) Sohaviy o'ziga xoslik: diplomatik, tijoriy, administrativ, boshqaruv, ma'muriy kabi yozishmalarda rasmiy uslub, internet va ijtimoiy maishiy jarayonlarda so'zlashuv uslubida og'zaki va yozma shaklda qo'llanilishi. Masalan, Diniy ilmiy sohada: *Ushbu lug'atni tuzishda bizni ilk bora ilhomlantirgan hamfikir do'stimiz shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining yorqin xotiralariga bag'ishlaymiz .*

#### NATIJA VA MUHOKAMA

*Lug'at keng o'quvchilar ommasiga zaruriy qo'llanma sifatida xizmat qiladi, degan umiddamiz, chunki har qanday lug'at har bir halqning nafaqat mo'jizakor til sandig'ini, balki tarixiy boyligini, diniy e'tiqodini, ma'naviy va madaniy sarchashmasini, urf-odati, mentalitetini, bir so'z bilan aytganda, xalq ruhini va uning betakror dunyosini o'zida namoyon etadi. Ushbu noyob dunyoni e'zoz va e'tibor bilan kelajak avlodga ko'z qorachig'iday asrab, avaylab yetkazib berish har bir lug'atshunosning muqaddas, shu bilan birga mas'uliyatli burchidir. Ayniqsa, bunday mas'uliyat darajasi biron-bir ilm-fan, texnika, kasb-hunar sohalari lug'atini tuzish jarayonida bir necha bor ortib ketadi. Shu sababdan ham ushbu jarayonga soha mutahassislarini, bilimdonlarini jalb etish va ular bilan hamkorlik qilish ilmiy zaruriyat va ehtiyoj hisoblanadi. Ushbu ehtiyojdan kelib chiqqan holda biz "Diniy atamalar va iboralar. Ommabop qisqacha izohli lug'at"ni tuzish jarayonida mamlakatimizning yetuk dinshunos, islomshunos ulamolari bilan bir qatorda o'zbek, arab tillari mutaxassislari – filolog olimlar bilan yaqindan muloqotda bo'ldik va ularning yo'l-yo'riq, ko'rsatmalari va yordamlaridan keng foydalanishga harakat qildik. Sababi til ilmining mashaqqatli va o'ta mas'uliyatli sohalaridan biri lug'atshunoslik ekanligi bizni shunday yo'l tutishimizga undadi.*

*Avvalambor, ushbu lug'atni tuzishga bizni ilk bora ruhlantirgan va o'zining beg'araz maslahatdari va yordamlarini ayamagan marhum do'stimiz shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlariga, lug'atning mas'ul muharrirligi mas'uliyatini o'z zimmasiga olgan zamonamizning ham ilohiy, ham dnyoviy ilmlar sohibi, ulamosi Shayx Abdulaziz Mansur hazratlariga, filologiya fanlari doktori, Andijon davlat universiteti professori, o'zbek tili leksikologiyasining zukko bilimdoni A. Sobirovga hamda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi til va adabiyot institutining tilshunos va adabiyotshunos olimi Sayfuddin Sayfullohga, lug'at tuzish jarayonida fidoyilik bilan biz bilan birga mehnat qilgan Andijon viloyati Oltinko'l tumani bosh imom xatibi, Andijondagi "Sayyid Muhyiddin maxdum" o'rta maxsus bilim yurti mudarrisi Muhammad Yusuf To'raqulov domlaga, Shahrixonlik shifokor-hakim, dinimizning jonkuyar bilimdonlaridan biri, noyob diniy manbalarga boy*

## ILMIY AXBOROT

*shaxsiy kutubxona sohibi Muhammadjon Alimovga, hamkasbim Muhammadjon Abdurahimovga, lug'at tuzish jarayonida bizni doimo ilhomlantirib turgan Andijonlik Isomiddin hoji Otaboyevga, shu bilan birga lug'at tuzish jarayonida ishtirok etgan barcha hamkasblarga, shogirdlarga, talabalarga o'zining chuqur minnatdorчилиgimni bildiraman.*

*Hurmatli kitobxon! Ushbu qilingan xayrli ishimizning ba'zi bir kamchiliklari uchun avvaldan uzr so'raymiz, kitobda uchragan juz'iy kamchiliklarni bizga yozib yuborasiz, degan umiddamiz.*

*Muxtorxon Umarxo'jayev,  
filologiya fanlari doktori, professor.*

- 9) Shaxsiy va jamoaviy xususiyatga egaligi;
- 10) Adresatga yo'naltirilganlik xususiyatiga egaligi;
- 11) Minnatdorчилик nutqiy janrida adresat, adresant va nutqiy vaziyatning o'ziga xosligi va hokazolar.

Ko'rinadiki, minnatdorчилик bildirishning verbal vositalarida matniy kompozitsion tuzilishga egaligi, rasmiy va norasmiylik, og'zaki va yozma shaklga egalik, dialogik va monologik nutqqa oidlik, uslubiy va sohaviy xususiyatlarga egalik, matnda modus va diktum qismlarning verbal, noverbal, lingvistik atributlar yordamida shakllanishi, shaxsiy va jamoaviylik, yo'naltirilganlik, adresant va adresat munosabatlari kabilar mavjud. Til tizimida minnatdorчилик bildirishning verbal vositalari so'zlashuv nutqida boshqa turli funksional xususiyatga ega jumlar bilan ham birikishi mumkin. Masalan, taklif mazmunli gapga javoban aytilgan rahmat so'zi minnatdorчилик va tashakkur bildirish mazmunida qo'llanilib, taklifga bo'lgan raddiyani bilan ham ifodalashi mumkin:

*- Hozir, ukam ... Husan dumaning qizini traktor tepib, buyragi shikastlanibdi. Shunga... o'zgina... Qani, uyga, ukam... Bir piyola choyimiz bor.*

*- Rahmat, aka. Boshqa safar... .*

Bunda taklifga minnatdorчилик bildirish+raddiya mazmuniy ketma-ketligi namoyon bo'lmoqda.

Minnatdorчилик bildirish nutqiy janrining noverbal vositalari so'zlovchining minnatdorчилик bildirish nutqiy vaziyati bilan bog'liq barcha hatti-harakatlarini o'z ichiga oladi. Halq orasida minnatdorчилик bildirish ramzi sifatida o'ng qo'lini ko'ksiga qo'yib, boshini egish, ya'ni ta'zim qilish hatti-harakati halq orasida eng ommalashgan hatti-harakatdir. Bundan tashqari kattalar va keksalar orasida duo qilish, yelkasini silab, shukronalik keltirish, o'zidan kichiklarni quchoqlab, yuzidan yoki qo'lidan o'pib qo'yish, yelka qoqish, rasmiy qarsaklar, qo'l siqish kabi hatti-harakatlar ham ba'zan minnatdorчилик hatti-harakatlarini anglatishi mumkin. Minnatdorчилик bildirishning noverbal vositalari xuddi verbal vositalar kabi oilaviy (peshonasidan o'pib qo'yish, yelkasidan silab, duo qilish, ta'zim qilish kabi) va jamoaviy (qarsak chalish, yelka qoqish, qo'l siqish, bosh egib, ta'zim qilish kabi), rasmiy (qo'l siqish, yelka qoqish, qarsak chalish, bosh egib, ta'zim qilish kabi) va norasmiy (o'pib qo'yish, tiz cho'kish, duo qilish kabi) xususiyatlarga ega xususiyatlarga ega.

Masalan,

*Tabib odamlar orasidan sekin-sekin o'tib burchakdagi zinadan sahnaga chiqdi. Abdurahmonov o'rnidan og'ir qo'zg'alib, Komil akaning ro'parasiga bordi. Tabib uning uzatgan chap qo'lini qo'shqo'llab qisdi. Umar zakunchi sahna burchagiga bir imo qilgan edi, bugaltir Soli so'poq pildirab chiqib keldi. Chamasi boyadan beri kutib turgan bo'lsa kerak, qo'lida tugun bor edi. O'rtoq, Komil aka, dedi Zakunchi tantana bilan.*

*O'rtoq, Komil aka!-dedi Zakunchi tantana bilan. –Shundoq qahramon o'g'ilni o'stirib tarbiyalaganingiz uchun ming rahmat sizga. Mana bu – kolxoz pravleniyesi nomidan sovg'a!*

Ko'rinadiki, ushbu voqeada qo'l siqish rasmiy minnatdorчилик bildirishning birinchi bosqichi sifatida voqe'lanmoqda. So'ngra minnatdorчиликning verbal ifodasi O'rtoq, Komil aka!-dedi Zakunchi tantana bilan. –Shundoq qahramon o'g'ilni o'stirib tarbiyalaganingiz uchun ming rahmat sizga. Mana bu – kolxoz pravleniyesi nomidan sovg'a! jumalari orqali reallashmoqda.

Quyidagi misolda esa minnatdorчилик bildirish uchun so'zlovchining boshi yerga tekkuncha ta'zim qilishligi orqali ifodalanmoqda:

*“Kimki bir ko'ngli buzuqning xotirin shod aylagay” nomli rukndan parcha :*

*Qiyналgan vaqtlarimda qo'ng'iroq qilaman va u kishi yaxshi gaplar bilan ko'nglimni ko'taradi. Qo'limga qalam olib maqola yozishimdan maqsad, menga va nogiron bolalarga o'z yordamini*

*ayamayotgan insonlarga tashakkur aytmoqchiman. Siz bolajonlarni qo'llasangiz, Oллоh sizni qo'llaydi. Hammangizga boshim yerga tekkuncha ta'zim qilaman va rahmat demoqchiman.*

Shuni aytish kerakki, minnatdorchilik bildirish nutqiy janridagi noverbal vositalar turli nutqiy vaziyatlarda turli ma'nolarda qo'llanilishi mumkin. Masalan, mamnuniyat va ta'zim qilish, bosh egib, ta'zim qilish, qo'lini ko'ksiga qo'yish kabi noverbal harakatlar funksional jihatdan biror ishni sidqidildan bajarishni, bajonudil bajarishni yoki mamnuniyat bilan kutib olishni ham bildirishi mumkin .

1) *G'ulomjon o'ng qo'lini ko'ksiga qo'yib ta'zim qildi: - Jonim bilan.*

2) *Xotamova mamnuniyatdan qizarib, ta'zim qildi – Qadamlaringizga hasanot!*

3) *Madaminxo'ja o'tirgan yeridan hiyol qo'zg'aldi-yu, qo'l qovushtirdi: Xush kelibsizlar.*

Minnatdorchilik bildirishning lingvistik atributlari taqdirlashni anglatadi. Taqdirlash vositalariga milliy, diniy, ijtimoiy qadriyatlarga asoslangan yoki davlat darajasidagi narsa-buyumlar kabilarni kiritish mumkin. Masalan, milliy liboslar (to'n), jonivorlardan ot, davlat darajasida mukofotlash va taqdirlashda orden va medallar, rasmiy guvohnomalar, faxriy yorliq, faxriy unvon, maqtov yorlig'i, esdalik nishonlari, imtiyozli mukofotlar, jumladan, pul mukofoti, shu bilan birga, haykal, yodgorlik kabilar ham kiritilishi mumkin. Haykal va yodgorliklarning halqning biror kishidan minnatdorchilikning hissiy ramzi, shu bilan birga, uning qilgan mehnatlarini, vatan uchun qo'shgan hissalarini qadrlash ramzidir.

Shuni aytish kerakki, davlat darajasidagi taqdirlashlardagi lingvistik atributlar rasmiy jihatdan davlat mukofotlari deb nomlanadi. Bunda O'zbekiston Respublikasining fuqarolari mehnat va jangovar xizmatlari, samarali davlat, ijtimoiy va ijodiy faoliyatlari uchun taqdirlanishlari nazarda tutiladi . Minnatdorchilik bildirishning lingvistik atributlari shaxsiy va jamoaviylik harakteriga ega, oilaviy, jamoaviy va davlat darajasidagi narsa-buyum, predmetlardan tashkil topadi. Masalan,

*Umar zakunchi pastga qarab qichqirdi:*

*– Komil aka!*

*O'rtoq Komil aka! Komil amaki deraza oldida o'tirgan ekan. Shoshilmay o'rnidan turdi. Boshida eskiroq yumaloq do'ppi, egnida chopon. Siyrak soqoli har doimgidek tekis taroshlangan. Yangi kotib Komil amakini tanir ekan.*

*- Iye, o'zimizni tabibku! - dedi kulimsirab. –*

*Shuda! Zakunchi darrov gapni ilib ketdi. Tabib bo'lgani bilan ketmonni hammadan yaxshi uradi. Staxanovchi. Ammo qo'liyam yengil. Lyuboy kasalni uch kunda tuzatadi. - Qani, chiqavering,- Komilboy! Orif oqsoqol mo'ylovini hafsala bilan buradi. – Geroyni otasiyam geroy bo'ladi-da.*

*Tabib odamlar orasidan sekin sekin o'tib burchakdagi zinadan sahnaga chiqdi. Abdurahmonov o'rnidan og'ir qo'zg'alib, Komil akaning ro'parasiga bordi. Tabib uning uzatgan chap qo'lini qo'shqo'llab qisdi. Umar zakunchi sahna burchagiga bir imo qilgan edi, bugaltir Soli so'poq pildirab chiqib keldi. Chamasi boyadan beri kutib turgan bo'lsa kerak, qo'lida tugun bor edi. O'rtoq, Komil aka, dedi Zakunchi tantana bilan.*

*- O'rtoq, Komil aka!-dedi Zakunchi tantana bilan. –Shundoq qahramon o'g'ilni o'stirib tarbiyalaganingiz uchun ming rahmat sizga. Mana bu – kolxoz pravleniyesi nomidan sovg'a! Shunday dediyu tugunni yechdi. Ichidan yap-yangi beqasam to'n chiqdi. Tabib xijolat chekib turar, goh sahnadagilarga, goh zalga qarar, chamasi, nima qilishini bilmasdi. Soli so'poq tugun orasidagi buklog'lik do'ppini stolga tashladi-da, shosha –pisha Komil akaning egnidagi choponini yechib oldi. Zakunchi yangi choponni o'z qo'li bilan kiygizdi. Qizil qiyiqchani chaqqon aylantirib, tabibning beliga bog'ladi. Soli so'poq do'ppining qatini ochib, kaftiga qarsillatib urayotgan edi. Oqsoqol ildam o'rnidan turdi. – Buyoqqa ol!-dedi qo'l cho'zib. – Kaling yuqib qoladi. Shu qo'ling bilan boshingni qashigansan bilaman. Qiyqiriq, kulgu bo'lib ketdi. Oqsoqol tabibning boshidagi yumaloq do'ppini avaylab yechib, qo'lga tutqazdi-da, yangisini kiygazdi. –Barakalla, Komilboy!-dedi tabibning boshidan o'pib. – Belida belbog'i bor bola o'stiribsiz. Oqsoqol joyiga borib o'tirayotganida tag'in qarsakbozlik boshlandi. Qiziq, hali o'zining sha'niga qarsak chalinganda g'ashi kelgan Abdurahmonov endi quvonib ketdi. Bir qo'llab chapak chalolmagani uchunmi, nuqul barakalla degandek havoda silkitar, ko'zlarida quvonch porlar edi. Umar zakunchi tabibga yuzlanib, tantanavor ohangda so'radi: -so'z beraylikmi? Tabib yelkasini qisdi. – Men nima ham deyman. Zalga qarab oldi-da, past vazmin oovushda qo'shib qo'ydi: -Urush tezroq bitsin. Jumla mo'min*



## ILMIY AXBOROT

qatori *Ochilim ham eson omon kelsin, yaxshi to'ylar qilaylik! Komil amaki sahnadan tushib ketayotganida Zakunchi tahin minnatdorlik bildirdi. – Rahmat, sizga! Qishlog'imizdan chiqqan qahramon Ochil Komilovning ukasi Olimjon Komilovni bilasizlar-a? Orqadan Parcha opaning do'rillagani eshitildi. – Bilovuz! Yaxshi bola! – Olimjon chiq bu yoqqa! – dedi Zakunchi zalga alanglab. Birinchi qatorda o'tirgan Olimlar sahna tomonga yugurdi. –malades, yigit! Umar zakunchi Olimjonning qo'lini qisdi. –Zakonniy bola! – dedi raykom kotibiga qarab. Darsdan bo'sh paytida kolxozga yordam beradi. Sahn burchagidan yana Soli so'poq chiqib keldi. Umar zakunchi patnus'ha yog'och ruchka bilan qog'ozga o'ralgan allanimani Olimjonga tutqazdi. –Mana bu oyingga! –dedi qog'ozga o'rog'liq narsaga imo qilib. – Ro'mol bunisi senga. Ruchka bilan Moskovsiy pero! Yaxshi o'qi, xo'pmi? Hozir nechanchi klassdasan? Olimjon nimadir degan edi, eshitilmadi. –Nima? – dedi Zakunchi qulog'ini Olimjonning og'ziga tutib.*

*-Qattiqroq gapir! Odamlar eshitsin. –To'rtinchi! Olimjon bir qo'lida ruchka, bir qo'lida qog'ozga o'rog'liq ro'molni changallab jilmaydi. Malades! –Zakunchi uning yelkasidan qoqdi. Bilib qo'y, sening vazifang-o'qish! Kelajakda olim bo'lmasang, hisobmas. Dohiyimiz Stalin shundoq qiyin paytdayam sizlarni o'qityapti. Boshqalarga yo'q nonni maktabga beryapti. Shundoq ekan senlar olim bo'lishing shart, to'g'rimi?*

Ushbu nutqiy vaziyat shuni ko'rsatadiki, yoshi katta erkakka berilgan beqasam to'n, qiyiqcha, do'ppi, ayolga atalgan ro'mol, o'g'il bolachaga taqdim qilingan ruchka va pero ushbu oilaga tegishli shaxsning jamoaviy ishlarda ko'rsatgan jasorati va xizmatidan jamoa minnatdorchiligining ramzidir. Demak, minnatdorchilik nutqiy janri lingvistik atributlarida gender xususiyatlar ham o'z aksini topadi.

**XULOSA**

Minnatdorchilik bildirish nutqiy janrining verbal, noverbal va lingvistik atributlari tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu vositalar minnatdorchilik bildirishning sohaviy va uslubiy xususiyatlariga ko'ra, ya'ni muayyan sohada qabul qilingan uslubiy xususiyatlarga tayangan nutqiy vaziyat talabiga ko'ra alohida yoki kompleks tarzda umumiy ifodalanishi ham mumkin.

da qilinadi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Muhammad Ahmad, Ali Raza Siddiqu, Muhammad Mushtaq. Genre Analysis of Acknowledgement Texts by Pakistani Master Level Theses Writers. [Linguistic Forum - A Journal of Linguistics](#)
2. Zhao, M. & Jiang, Y. (2010). Dissertation acknowledgement: Generic structure and linguistic features. *Chinese Journal of Applied Linguistics*, 33(1), 94-109;
3. Williams, M. (2018). Thesis acknowledgement & dissertation dedication help. Retrieved February 8, 2019 from <https://www.essaytown.com/writing/thesis-acknowledgment-dissertation-dedication>
4. Ang, W. (2012). Comparison of gratitude across context variations: A generic analysis of dissertation acknowledgements written by Taiwanese authors in EFL and ESL contexts. *International Journal of Applied Linguistics and English Literature*, 1(5), 130-146. doi: <http://dx.doi.org/10.7575/ijalel.v.1n.5p.130>
5. Ahmad, M., Ismail, M. K. A., & Aqeel, M. (2018). Genre based analysis of acknowledgement texts written by Pakistani writers. *European Online Journal of Natural and Social Sciences*, 7(3), pp 594-604
6. Al-Ali, M. N. (2006). Conveying academic and social identity in graduate dissertation acknowledgments. *Fifth International Conference of European Association of Language for Specific Purposes* (pp. 35-42)
7. Zaragoza, Spain. Al-Ali, M. N. (2010). Generic patterns and socio-cultural resources in acknowledgements accompanying Arabic PhD dissertations. *Pragmatics*, 20(1), 1-26. doi: <https://doi.org/10.1075/prag.20.1.01ali>
8. Behnam, B., & Golpour, F. (2014). A genre analysis of English and Iranian research articles abstracts in *Journal of Anthropological Research*, 43(1), 63-84. doi: <https://doi.org/10.1086/jar.43.1.3630467>
9. Caesar, T. (1995). On acknowledgements. *New Orleans Review*, 19(1), 85-94; Cheng, S. W. (2012). A contrastive study of master thesis acknowledgements by Taiwanese and North American students. *Open Journal of Modern Linguistics*, 2(1), 8-17
10. Cheng, W., & Kuo, C. (2011). A pragmatics analysis of MA thesis acknowledgements. *Asian ESP Journal*, 7(3), 29-58